

**Islomova Hokima
Buxoro davlat universiteti talabasi**

**XORAZMSHOHLAR (ANUSHTEGINLAR) DAVLATI VA UNING TARIXIY
GEOGRAFIYASI**

Annotasiya: Mazkur maqolada XI–XIII asrlarda Xorazm, Movarounnahr va O'rta Sharq zaminida hukumronlik qilgan davlatning siyosiy, ijtimoiy, iqtisoqiy, ma'daniy, xo'jalik hayoti, savdo-sotiq va tovar-pul munosabatlari, shahar va qishloqlari, ularning xo'jalik turmushlari haqida so'z boradi. Shuningdek, maqolada siyosiy o'zgarishlar, hokimiyat tepasida turgan davlat rahbarlarining siyosiy boshqaruvi, ma'muriy boshqaruvi islohotlari qayd etilgan.

Kalit so'zlari: Anushteginiy –Xorazmshohlar, Podshoh Qutbid–dunyo vad–din Abdu –faht Muin Amiral–mo'minin, Zahirayi xorazmshohiy, Yoqut al-Hamaviy, Zakariyo Qazviy, Takash,Gurganch, Buxoro, Samarqand, Andalusa, Darg`on.

Abstract: In this article, the political, social, economic, cultural, economic life, trade and commodity-monetary relations, cities and villages, their houses, of the state that ruled Khorezm, Movarounnahr and the Middle East in the XI-XIII centuries. It is about marriages. Also, the article mentions political changes, political management of state leaders, administrative management reforms.

Key words: Anushtegini-Khorazm Shahlar, King Qutbid-dunya wad-din Abdu-faht Muin Amiral-mo'minin, Zahirai Khorazmshahi, Yaqt al-Hamawi, Zakariyo Qazvi, Takash, Gurganch, Bukhara, Samarkand, Andalusa, Dargan.

KIRISH

Anushteginiylar sulolasining asoschisi yoki birinchi vakili Anushtegin kelib chiqishi jihatdan o'g'uz turklaridan bo'lib yoshligida Garjiston (Gurjiston) da yashagan va yollanma jangchi (mamluk) bo'lgan.

Saljuq sultoni Malikshoh I davrida Anushtegin Tashdorlik mansabiga (sulton hovuzlari va hamomlari ashyolari xazinachisi) ko'targan edi. Bu lavozimga sultonning ishonchli kishisi tayinlangan, Anushtegin sultonning eng yaqinlaridan biriga aylanadi. Natijada 1076-yilda Sulton Malikshoh Anushteginni Xorazm hokimi etib tayinlaydi[1]. Anushtegin Saljuqiylarga tobe bo'lib hokimiyatni boshqaradi va 1097-yilda vafot etadi. Uning o'gli Qutbiddin Muhammad (1097-1128) Xorazm voliysi qilib tayinlanadi. U otasi davrida Marvda ilm olgan, xususan diniy ilmlarni yaxshi o'rgangan edi. Tarixiy manbalarda Xorazmshohning unvonim “Podshoh Qutbid –dunyo vad –din Abdul –faht Muin Amiral –mo'minin” (“Dunyo va din qutbi, g`alabalar otasi Mo'minlar amiri –xalifaning yordamchisi”) deb ulug'lanishi Qutbiddin Muhammad Saljuqiylarga tobe bo'lsada mavqeyi ancha baland bo'lidan dalolat beradi [2].

Qutbiddin Muhammad olimu fuzalolarga homiylik qilgan adolatli hukmdor bo'lgan. Jurjoniyning tabobatga oid “Zahirayi xorazmshohiy” asari Qutbiddin Muhammadga bag'ishlangan [3].

Otsiz o'z raqiblari orasidagi ziddiyatlardan ustamonlik bilan foydalanim o'z davlati mustaqilligini saqlabgina qolmay uning hududlarini kengaytirdi. 1141-yilda Otsiz Xuroson yerlarini Marv, Nishapur shaharlarini egallaydi [4].

Takash (1172-1200) mohir davlat arbobi, tadbirkor va uddaburon hukmdor sifatida o‘z davlati qudratini yuksaltirishga muvaffaq bo‘ladi. 1187-1193-yillarda u Nishopur, Ray va Marv shaharlarini bosib oladi. 1194-yilda saljuqiyalar sultoni Tug‘rulga qaqshatqich zarba berib, Eronni Xorazmga bo‘ysundiradi[5]. Muhammad Xorazmshoh (1200-1220) davrida davlat yanada kengayib, Yaqin Sharqdagi eng qudratli davlatga aylanadi. Xorazm Kaspiy dengizidan Fors qo‘ltig‘igacha, Kavkazdan Hindiqush tog‘larigacha bo‘lgan yerkarni o‘z ichiga olgan. Alouddin Muhammad sa'y-harakatlari tufayli 1217-yilga kelib butun Movorounnahr, Ozarbayjon, Eron, Xurosondan Hindistongacha bo‘lgan yerkarda Xorazmshohlar hukmdorligi o‘rnatildi. Ammo, mamlakatning ichki siyosiy holati mustahkam emas edi. Bu holat Mo‘g‘ul bosqini paytida yaqqol namoyon bo‘ldi.

Asosiy qism: XII-XIII asr boshlarida Xorazm davlatchiligining rivojlanishda muhim bosqich bo‘ldi. Bu davrda anushteginiylar sulolasidan chiqgan hukumдорлар Otsiz, Takash va Sulton Muhammad Xorazmshohlar davlatini boshqarishning yanada mukammal tizimi, tartiboti va uslublarini yaratganlar.

Xorazmshohlar davridagi iqtisodiy va ijtimoy hayotning rivojlanganligi faqatgina yozma manbalarda emas, moddiy manbalarda ham saqlanib qolgan. XII asrning oxiri va XIII asrning boshlarida shoh Takash davrida Xorazm kuchayib sharqdagi eng qudratli davlatlardan biriga aylanadi. Buyuk Xorazmshohlar davrida ilgari cho‘lga aylangan Charmanyon vohasidagi madaniy bo‘shliq qayta tiklanib, Shohsanam, Zmuhsir, Govurqa‘la, Devqa‘la kabi qadimiy shahar va istehkomlar qayta jonlanib ketadi. Xorazmshohlar davlatining markazi Gurganch shahri bo‘lgan. Bu shaharda hunarmandchilikning barcha sohalari taqqiy etgan, manbalarda 50 turdag'i kasb-hunar keltiriladi. Gurganch naqoshlari fil suyagidan va sandal daraxtidan ajoyib naqshlar tayyorlagan, ayollar chevarlikda mohir bo‘lgan, ipakchilikda ipakning eng oliy navini yetishtirgan. Binokor quruvchilar tol yog‘ochdan sinchli binolar qurbanlar. Bu esa tez-tez bo‘lib turadigan zilzila vaqtida tosh va g‘ishtli uylarga nisbatan mustahkam bo‘lishini taminlagan

Mo‘g‘ullar istilosiga qadar Gurganch juda obod aholisi gavjum shahar bo‘lgan. Zakariyo Qazviyining yozishicha Gurganch Jayhun daryosi bo‘yidagi juda katta sharhar bo‘lgan. Gurganchda aholi ko‘pligidan ko‘chalar va bozorlarda odamlar bir biriga urilar, o‘tish qiyin bo‘lgan [6].

Gurganchda mo‘g‘ullar istilosida arafasida bo‘lgan mashhur arab sayyohi Yoqut al-Hamaviy ma’lumotlariga ko‘ra “Men bu shaharni mo‘g‘ullar zabit etib vayronaga aylantirganda, hijriy 616 - yili (1219-1220) ko‘rganman, nazarimda bunday katta bundan ham boy va obod shaharni ko‘rmaganman. Biroq mo‘g‘ullar bosib olgandan keyin buning hammasi tamom bo‘ldi. Shaharda mustahkamroq binolargina omon qolgan aholi esa tamoman qirib tashlangan deb eshitdim “[7] degan ma’lumotlarni keltiradi.

Sharqiy yevropa bilan savdoning o‘sishi natijasida Xorazmshohlar davlatining shimoliy - g‘arb tomondagi eng chekka istehkomi bo‘lgan Gurganch shahri bu savdoning birinchi ahamiyatga ega bo‘lgan markazga aylanadi. Gurganch savdogarlari noyob mollarni Bag‘dodga shuningdek olis Andalusa hududlariga olib borib sotganlar. Rashididdin Vatvotning Iroqdag‘i xorazm noibiga maktubida Usmon ibn Ismoil Xorazmiy ismli savdogarga g‘amxo‘rlik qilishini so‘ragan. Abul-Faht Nasr ibn Hasan Shoshiy ismli savdogar Samarqanddan karvon bilan Andalusa hududlariga olib savdo aloqalarini olib borgan.

Xorazmshohlarning harbiy-siyosiy g‘alabalari davlatning iqtisodiy qudratiga asoslangan edi. Davlatning iqtisodiy qudratini markazdagi hamda unga tobe mamlakatlardagi pul xo‘jaligi tanga zarbxonalari pul muomilasi muhim o‘rinda turadi. Birinchi bo‘lib xorazmshoh Otsiz Marv va Nishopur hududlarini egallagandan so‘ng o‘z nomidan tanga zarb etgan. 1167-yilda xorazmshoh

El-Arslon Nishopurni faht etgan bu hududda uning nomi bilan oltin dinor va kumush dirhamlar zarb qilingan. Xorazmshohlarga tobe bo`lgan ko`pgina mamlakatlarda hamda viloyatlarda xorazmshoh nomiga xutba o`qilib, tangalar zARB qilingan. Jumladan quyidagi hududlarni keltirish mumkin: 1195-yilda Kirmon dududi xorazmshohlar davlati tarkibiga kiradi, bu hududa sulton Takash nomi bilan tanga zARB qilingan, Balx hokimi Imoniddin hijriy 603y-ilda, Hirot hokimi G`iyosiddi G`uriy, Bamiyon hokimi Alouddin 1209-yilda, Samarqand hokimi Usmon ibn Ibrohim xorazmshoh nomiga tangalar zARB etgan. Quyidagi shaharlarda xorazmsholar nomiga tangalar zARB qilingan Movorounnahrda Samarqand, Buxoro, Termiz, Balx, Bomiyon, G`aznon, Peshovar, Qunduz, Niso, Parvon, Shofurkon va boshqa hammasi bo`lib 30 ga yaqin viloyat va shaharlarda xorazmshohlar nomiga tangalar zARB qilingan.

XI-XIII asrlarda Xorzmida ko`p shaharlar jumladan Urganch, Kat kabi shaharlar O`rtal Osiyoda tipik bo`lgan o`rtal asr shaharlari qiyofasiga kiradi. Manbalarda Xorazm shaharlar haqida ko`plab malumotlar saqlanib qolgan. Jumladan, cho`lga yaqin balandlikdagi shaharcha, o`zining katta bozori va jome masjidiga ega bo`lgan Darg`on shahrini aytish mumkin. Yoqt Hamaviy Marvdan Gurganchga kelayotganida bu yerda hijriy 616-yil ramazon oyida (1219-yil noyabrda) bo`lgan[8]. Shu bilan birgalikda quyidagi shaharlar to`g`risida ma`lumatlar keltirilgan. Mavakon shaharchasi – Hazorasp va Xushmisan shaharlari oralig`ida joylashgan. Govshfanj – Gurganchdan 20 farsak olisdagi chiroqli kata shahar bo`lgan. Xorazm davlatidagi eng yirik shaharlardan biri Buxoro shahri bo`lgan, shahar o`zining hunarmandchilik maxsulotlati bilan mashhur bo`lgan. Hunarmandchilikning to`qimachilik sohasi rivojlangan, ayniqsa zarbof zandanacha qirbos (surp) gazlamalari mashhur bo`lib bu matolarning xaridori olis mamlakatlarda ko`p bo`lgan. Sug`d viloyatining ma`muriy markazi Samarqand shahri bo`lgan. Bu shaharga yer yuzidagi eng go`zal va boy shahar ta`rifi berilgan, shahar qa`la bilan o`ralgan 4 ta darvoza (Bobi Doston, Bobi Ko`hak, Bobi Toq, Namozgoh) orqali kirilgan, sharning ichki qismida qo`rg`oshin quvurlar orqali uylar, hovlilarga suv o`tkazilgan. Samarqand hunarmandlari ayniqsa qog`oz ustalari dunyoga mashhur bo`lgan, Samarqand qog`oziga sifat jihatdan Xitoy qog`ozni teng kelgan. Xitoy sayyohi E.Chu Soy Samarqandga 1218-yilda kelgan shahar sharafiga she`rlar yozgan. Manbalarda Xorazm viloyati qishloqlari haqida malumotlar kam. Yoqt Hamaviy faqat bazi qishloqlarni sanab o`tadi: Harur, Gaznin, Muborak, Bof, Zamaxshar, Farnisafon shular jumlasidandir .

Xorazmshohlar davlatinining markazi, asosan Amudaryoning quyi oqimida joylashgan bo`lsa ham, rivojlangan davrlarida, ayniqsa, XIII asr boshlarida shimolda Kaspiy dengizining shimol sohillari, janubida Hindukush tog`lari, sharqda Qashqargacha yetgan. Xorazmshohlar davlati tarkibiga kiritilgan hududlardagi bir qancha shaharlarda ilm-ma`rifat, madaniyat yuksaldi. Movarounnahr, Xuroson, Fors, Ozarbayjon va Iroq o`lkalari o`rtasida madaniy aloqalar kuchaydi[9].

Xulosa

Xulosa qilib aytdanda XI-XIII asrlarda Xorazm va Movarounnahr zaminida hukumronlik qilgan davlati siyosiy tarixi, ijtimoiy hayoti alohida ahamiyatga ega bo`lgan. Xorazm davlati eng gullab –yashnagan davrda Xuroson Mozandaron G`azna Zamindevor Kirmon Sind Kash Miqron viloyatlari va ulardagi sahahar va qishloqlarini o`z ichiga olgan

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Эшов Б. Ўзбекистон давлатчилиги ва бошқаруви тарихи. -Т.: 2012. -Б.189.
2. To`rayev H. O`zbekistonda davlat muassasalari tarixi. (O`quv qo'llanma) BUXORO : B-193

3. Farhod Sultonov, Farruh Bozorboyev O'ZBEKISTON HUKMDORLARI Toshkent Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti 2007 B-18
4. Farhod SULTONOV. O'rta asrlar tarixi (O'zbekiston tarixi) Toshkent Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti 2007 B- 111
- 5 Ziyo Bunyodov Anushtagin - Xorazmshohlar davlati" (1097-1231) Adabiy-badiiy nashr Toshkent – 1998 B- 135
- 6 Iso JabborOV. Buyuk Xorazmshohlar davlati. Toshkent sharq nashriyoti 1999 yil B-'109
- 7 Farhod SULTONOV. O'rta asrlar tarixi (O'zbekiston tarixi) Toshkent Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti 2007 B- 112
8. Юлдошева, Б. М. (2020). XX АСРНИНГ 80-ЙИЛЛАРИДА АТРОФ-МУҲИТ МАСАЛАСИГА ЁНДАШУВЛАР ТАРИХИДАН (БУХОРО ВИЛОЯТИ МИСОЛИДА). *ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ*, (SI-1№ 4).
9. Mirjonovna, Y. B. (2021). The influence of arab caliphate on formation of bukhara urban culture. *Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL)*, 2(08), 28-32.
10. Mirjonovna, Y. B. (2021). CHO'L SHAMOLLARINING BUXORO SHAHAR TARIXIDA TUTGAN O'RNI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(4), 637-645.
11. Mirjonovna, Y. B. (2021). Question About the Environment: Has the Historian Studied the Environmental Problem?. *Academicia Globe*, 2(01), 10-17.
- Юлдошева, Б. М. (2021). ЭКОЛОГИК МУАММОЛАР: ХАЛҚАРО ҲАМЖАМИЯТ МУНОСАБАТИ ВА ТАРИХИЙ ЁНДАШУВ: Юлдошева Бибиражаб Миржоновна Бухоро давлат университети докторанти. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (5).
12. Иброҳим Кафес ўғли. Хоразмшохлар давлати тарихи. -Т.: "Navro'z",
- 13 Sagdullayev A. va boshqalar. O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. – Т., Akademiya, 2000-yil.
14. Alimova D.A, Rteladze E.V. O'zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari. -T., "Sharq", 2001-yil. 211
15. Yuldasheva, B. M. (2022). SOMONIYLAR VA QORAXONIYLAR DAVRIDA BUXORO SHAHAR MADANIYATINING RIVOJLANISHI VA ATROF-MUHITGA MUNOSABAT. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(3), 1307-1313.
16. Юлдошева, Б. М. (2022). ПАХТА МОНОПОЛИЯСИНинг БУХОРО ШАҲАР АТРОФ МУҲИТИГА ТАЪСИРИ (XX АСР ДАВОМИДА): Юлдошева Бибиражаб Миржоновна, Бухоро давлат университети таянч докторанти. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (5), 46-51.

17. Yuldasheva, B. (2023). ORTA OSIYO XONLIKLARINING SIYOSIY TARIXIY GEOGRAFIYASI ANNOTATSIYA. " Экономика и туризм" международный научно-инновационной журнал, 6(14).
18. Yuldasheva, B., & Razikova, M. (2023). XORAZMSHOHLAR DAVLATINING TARIXIY GEOGRAFIYASI. In " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (Vol. 1, pp. 420-422).
19. Yuldasheva, B. M. ., & Islomova, S. J. qizi . (2023). IX-XIII Asrlarda Movarounnahrning Siyosiy-Tarixiy Geografiyasi. *Miasto Przyszlosci*, 41, 132–135.
20. Yuldasheva, B., & Feruza, R. (2023). IX–XIII ASR BOSHLARIDA MOVAROUNNAHRDAGI IJTIMOIY-IQDISODIY VOQEALAR TARIXIY-GEOGRAFIYASI. *Gospodarka i Innowacje.*, 41, 356-359.
21. Bibirjab Yo'ldasheva, & Sharipova Parizod. (2023). Markaziy Osiyo Tarixida Amir Temur Shaxsining O'rni. *Miasto Przyszlosci*, 41, 424–429.
22. Yuldasheva, B., & Muxtorova, S. (2023). O'RTA OSIYONING IBTIDOIY JAMOA DAVRIDAGI TARIXIY GEOGRAFIYASI. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 9-13.
23. Yuldasheva, B., & Rahmatova, F. (2023). SOVET ITTIFOQI TARKIBIDAGI O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA NAZAR. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 205-208.
24. Bibirjab Yuldasheva, & Guliniso Rashidova. (2023). BUXORO AMIRLIGI VA ROSSIYA ELCHILIK MUNOSABATLARI (XVIII ASRDA). "ONLINE - CONFERENCES" PLATFORM, 1, 348–351.
25. Yuldasheva, B. (2024). The current state of green spaces and their historical changes in Bukhara City. In *BIO Web of Conferences* (Vol. 84, p. 01039). EDP Sciences.